

Vatanim – O‘zbekiston



O‘zbekiston – boy tabiatga, qadimiy tarixga, qiziqarli an‘analarga ega quyoshli va mehmondo‘st yurt. Bu yerda oftob deyarli yil davomida nurlarini sochib turadi. Turli xalq vakillari tinch-totuv yashab, chiroyli me‘morchilik, yorqin hunarmandchilik hamda beqiyos shaharsozlik namunalarini yaratadilar.



Ushbu darsda Vatanimiz qaysi jihatlar bilan dunyoga nom taratayotganini bilib olasiz. O‘zingiz uni nima uchun yaxshi ko‘rishingizni esa o‘ylab ko‘rasiz.



O‘zbekiston o‘z hunarmandchiligi bilan butun dunyoga mashhur.



to‘qimachilik



kulolchilik



badiiy kulolchilik



so‘zana (kashta)

Mamlakatimizda ko'plab go'zal me'moriy obidalar bor. Qadimiy va zamonaviy binolar hamyurtlarimiz hamda yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar ko'zini quvontiradi.



*Registon.
Samarqand*



*"Yangi O'zbekiston" bog'i.
Toshkent*



Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Toshkent



- O'zbekiston dunyoga nimasi bilan mashhur?
- Siz qaysi shahar yoki qishloqda yashaysiz?
- Siz o'z yurtigingizni nima uchun yaxshi ko'rasiz?



Men tug'ilgan yurt – O'zbekiston! U mehmondo'st va tinchliksevar. Rasmlarda tasvirlanadigan kaptarlar tinchlik va ezgulikni, bayroq esa Vatanimiz faxrini ifodalaydi.



Bu yorqin va qalbga yaqin obrazlarning rasmini birgalikda chizamiz.


Rasm chizish bosqichlari:

1. Bosh uchun – aylana, tana uchun – yarimaylana, dum uchun – uchburchak **chizing**. Tanadan chap va o'ng tomonga gul yaprog'iga o'xshash ikkita egri shakl chiqaring. Bular qanotlarning xomaki shakli bo'ladi.
2. Boshni tana bilan **ulang**. Qanotlar va dumni patlarga ajrating. Tumshuq va ko'zni qo'shing.
3. Aniq chiziqlar bilan **rasmni yakunlang**. Hajm berish uchun ko'kimtir soyalar qo'shib kabutarni bo'yang. Xohlasangiz, fon ham qo'shishingiz mumkin.





1




2



3



4



5



6



7